



O'zbekiston Respublikasi
ADLIYA VAZIRLIGI

**QONUNCHILIK HUJJATLARI VA ULAR
LOYIHALARINI TARTIBGA SOLISH TA'SIRINI
BAHOLASH TIZIMINING HOLATI BO'YICHA
2025-YIL YAKUNLARI YUZASIDAN**

AXBOROT



2025 YILLIK HISOBOT

QONUNCHILIK HUJJATLARI VA ULAR
LOYIHALARINING TARTIBGA SOLISH TA'SIRINI
BAHOLASH TIZIMI HOLATI

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I. ASOSIY KO'RSATKICHLAR	6
1.1. Qonunchilik hujjatlari loyihalarining tartibga solish ta'sirini baholash holati.....	6
1.2. Amaldagi qonunchilik hujjatlarining tartibga solish ta'sirini baholash holati.....	9
1.3. Qonunchilik hujjatlari ijrosini monitoring qilish holati	14
II. SALOHİYATNI OSHIRISH VA FAOLIYATNI BAHOLASH NATIJALARI.....	17
2.1. Vazirlik va idoralar mutaxassislarining malakasini oshirish.....	17
2.2. Vazirlik va idoralarning faoliyatini baholash natijalari	19
III. XALQARO HAMKORLIK	23
IV. ISTIQBOLLI YO'NALISHLAR	27

KIRISH

Bugungi kunda kundalik hayotimizning deyarli barcha jabhalari — shifokor qabuliga yozilishdan tortib, tadbirkorlik faoliyatini boshlash, kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish va mehnat faoliyatini olib borishgacha — qonunchilik hujjatlari orqali tartibga solinadi.

Shu bois, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiquvchilarning har bir qarori va har bir qadami bevosita fuqarolarning kundalik hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Inson omili mavjud bo'lgan har qanday jarayonda xatolar yuzaga kelishi mumkin. Qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqishda yo'l qo'yilgan noto'g'ri qarorlar yoki yetarli darajada o'ylab chiqilmagan yechimlar esa turli salbiy oqibatlarga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Ushbu salbiy oqibatlar tartibga solish ta'sirini baholash (keyingi o'rinlarda — TSTB) doirasida quyidagi eng muhim 7 masala asosida tahlil qilinadi (1-rasm):

1-rasm

1 Qanday muammo va uni asoslovchi ma'lumotlar bor? 	2 Maqsadlar qanday, masalaga nega davlat aralashishi kerak? 	
3 Muammoni hal qiladigan qanday yechimlar bor? 	4 Bu yechimlarning foyda-xarajati qanday? 	5 Qoidalar kimlarga ta'sir ko'rsatadi va ular fikri o'rganildimi? 
6 Eng yaxshi yechim qaysi va qanday natija prognoz qilinmoqda? 	7 Maqsadlarga erishilishi qanday ko'rsatkichlarga qarab aniqlanadi? 	

2018-yilda Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish [konsepsiyasi](#) tasdiqlanishi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida keng qamrovli islohotlarning boshlanishiga zamin yaratdi.

Deyarli barcha rivojlangan xorijiy davlatlarda (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqalar) **o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab** qonunchilik barqarorligini ta'minlash va tartibga solish muhitini yaxshilash maqsadida **tartibga solish ta'sirini baholash (TSTB) instituti joriy etilgan.**

Mazkur tizim **so'ngi 50 yil davomida** izchil takomillashtirilib, **milliy qonunchilik tizimlariga integratsiya qilingan** hamda bugungi kunda norma ijodkorligi jarayonining muhim institutsional mexanizmi sifatida qaralmoqda.

Tartibga solish ta'sirini baholash tizimini amaliyotda joriy etish, shuningdek, tahlil va ehtimoliy oqibatlarni baholash madaniyatini shakllantirish uzoq vaqtni talab etishiga qaramasdan, so'nggi **besh yil davomida** ushbu yo'nalishda sezilarli ijobiy natijalarga erishildi.

Jumladan, 2021-yildan boshlab, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida TSTB joriy etildi. Dastlab, faqat tadbirkorlikka ta'sir ko'rsatadigan qonunchilik hujjatlari va ular loyihalari baholangan bo'lsa, 2023-yildan unga qo'shimcha fuqarolarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlari hamda atrof-muhitga daxldor hujjatlarning ham tahlil qilina [boshlandi](#).

2024-yildan boshlab, qonunchilik hujjatlari loyihalarini 2 bosqichda: loyihalarni ishlab chiqishdan oldin – **soddalashtirilgan** tarzda, loyihalarni ishlab chiqish bilan bir paytda – **kengaytirilgan** tarzda (faqat iqtisodiy, ijtimoiy va atrof-muhitga ta'siri darajasi yuqori deb topilgan loyihalar uchun) TSTB o'tkazish tartibi [joriy etildi](#).

Adliya vazirligi TSTB tizimini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida ushbu tizimni samarali joriy etish va uning doimiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni olib bormoqda. Mazkur axborotda 2025-yil yakunlari bo'yicha soha rivojlanishiga oid asosiy ko'rsatkichlar, amalga oshirilgan islohotlar, xalqaro hamkorlik natijalari haqida batafsil ma'lumot keltirilgan.


2024-yil yakunlari bo'yicha axborot bilan [ushbu havola](#) orqali tanishishingiz mumkin.

I. ASOSIY KO'RSATKICHLAR


1.1.

Qonunchilik hujjatlari loyihalarining tartibga solish ta'sirini baholash holati

Tartibga solish ta'sirini baholash tizimi joriy etilgan dastlabki **5** yil davomida vazirlik va idoralar faoliyatida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, 2025-yil yakunlari bo'yicha TSTB hisoboti bilan taqdim etilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ulushi **99** foizga yetdi. Ushbu ko'rsatkichni avvalgi yillar bilan taqqoslaganda, tizim joriy etilgan dastlabki yilda **25** foizni tashkil etgan (1-diagramma).



1-diagramma



2-diagramma

2025-yilda TSTBdan o'tkazilgan loyihalar ulushi oldingi yilga nisbatan deyarli

5 BARAVARGA OSHIB



vazirlikka **2 385** ta hisobot kiritilgan (2-diagramma).


Miqdoriy tahlil natijalari vazirlik va idoralar tomonidan norma ijodkorligi faoliyatida "aqlli tartibga solish" modeli izchil tatbiq etilayotganini ko'rsatmoqda.

Bunday o'zgarishlar Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimida yaratilgan maxsus texnik imkoniyatlar bilan bog'liq bo'lib, **TSTB amaliyoti norma ijodkorligining ham huquqiy, ham texnik jihatdan ajralmas qismiga aylandi.** Bu, o'z navbatida, ishlab chiqilayotgan takliflarning salbiy ta'sirini oldindan aniqlash va oqibatlarini oldini olish, yumshatish imkoni beradi.

Adliya vazirligiga kiritilgan TSTB hisobotlari ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligi (10 foiz), Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi (6 foiz), Qishloq xo'jaligi (6 foiz), Ichki ishlar (5 foiz) va Sog'liqni saqlash (4,5 foiz) vazirliklari qayd etdi (3-diagramma).

3-diagramma

Eng ko'p TSTB hisobotlarini kiritgan davlat organlari



Adliya vazirligi loyihada manfaatdor tomonlar asossiz xarajat qilishi, ortiqcha majburiyat yuklashi, taqiq va cheklovlar mavjudligi, muammo taklif etilayotgan tartibga solish usuli bilan hal etilishining asoslilikini o'rganadi.


2021–2025-yillarda qonunchilik hujjatlari loyihalarning TSTBdan o'tkazilishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlariga **10 trln so'mga yaqin** qiymatda qo'shimcha xarajat keltiruvchi talablar, majburiyat yuklovchi hamda taqiq va cheklovlar o'rnatuvchi normalar chiqarib tashlandi.

Jumladan, aholi va biznes uchun talab, taqiq va imtiyozlarni nazarda tutuvchi **754 ta** soddalashtirilgan TSTB hisoboti (4-diagramma) hamda shundan **181 tasi** bo'yicha shakllantirilgan kengaytirilgan hisobotlar (5-diagramma) ko'rib chiqilib, quyidagicha xulosalar berilgan:

4-diagramma

Soddalashtirilgan


TSTB hisobotlari



5-diagramma

Kengaytirilgan

TSTB hisobotlari



Xususan, TSTB hisobotlari bo'yicha berilgan salbiy xulosalarda huquqni qo'llash amaliyoti yetarli darajada tahlil qilinmaganligi, tegishli sohani tartibga solish uchun normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish zarurati yetarlicha asoslantirilmagani kabi kamchiliklar qayd etilgan.

Shuningdek, ba'zi hollarda muammoni hal etishning muqobil usullari ko'rib chiqilmagani, manfaatdor tomonlar uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan foyda va xarajatlarning chuqur tahlil qilinmaganligi hamda ehtimoliy oqibatlarining yetarlicha baholanmagani aniqlangan. Loyihada

tanlangan tartibga solish usuli qo'yilgan maqsadlarga erishish imkonini bermasligi, konseptual jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmagani hamda samaradorlik nuqtai nazaridan sust ekani ham asosiy e'tirozlardan bo'lgan.

Shu bilan birga, taqdim etilgan **90 ga yaqin** ijobiy xulosalarda mavjud takliflarni takomillashtirishga qaratilgan **100 dan ortiq** tavsiyalar berilgan.

Shu bilan birga, tartibga solish ta'sirini baholash natijasida asossiz deb topilgan 50 dan ortiq takliflarni chiqarib tashlash bo'yicha xulosalar taqdim etilgan.


1.2.

Amaldagi qonunchilik hujjatlarining tartibga solish ta'sirini baholash holati

2021-yildan boshlab, Adliya vazirligi tomonidan amaldagi qonunchilik hujjatlarining qanday ishlayotgani, shuningdek, ularning fuqarolar va tadbirkorlarga ko'rsatayotgan ta'sirini aniqlash maqsadida ushbu hujjatlarning tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish faoliyati yo'lga qo'yilgan.


2025-yildan boshlab mazkur faoliyatni muvofiqlashtirish vazifasi **Adliya vazirligi huzuridagi Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash institutiga** yuklatildi. Natijada, 2025-yilda amaldagi qonunchilik hujjatlarini TSTBdan o'tkazish ko'rsatkichi 2021-yilga nisbatan **4 baravardan ortiqqa** oshdi (6-diagramma). Xususan, 2021-yilda 14 ta hujjat tahlil qilingan bo'lsa, 2025-yilda turli sohalardagi **61 ta hujjat baholashdan o'tkazildi** (7-diagramma).

6-diagramma



7-diagramma

TSTBdan o'tkazilgan amaldagi qonunchilik hujjatlari sohalar kesimida



Advokatura va huquq - 12



Ta'lim va ilm-fan - 11



Qurilish va transport - 10



Iqtisodiyot va soliq - 9



Ijtimoiy himoya - 8



Qishloq xo'jaligi - 6



Ekologiya va energetika - 5

Jumladan, **“Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”**gi, **“Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”**gi, **“Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”**gi va **“Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”**gi qonunlarning amalda ishlash holati bevosita viloyatlarga chiqqan holda aholi va tadbirkorlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish orqali o‘rganildi. Xususan:



“NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR HUQUQLARI TO‘G‘RISIDA”GI QONUNNI BAHOLASH NATIJALARIGA KO‘RA:

2021-2024-yillarda **200 mingdan ortiq** nogironligi bo‘lgan shaxs ish bilan ta‘minlangan bo‘lib, ularning **76 foizi** xususiy sektorga to‘g‘ri keladi. Bandlikka ko‘maklashish markazlari orqali ishga joylashtirish darajasi **97 foizni**, soliq imtiyozidan foydalanish ko‘rsatkichi esa **53 foizni** tashkil etgan.



Shu bilan birga, kvotalash mexanizmi kutilgan **samarani bermagan.**



16 mingdan ortiq zaxira
ish o'rnining atigi
30% bandlikka aylangan >>>



kvota asosida ishga qabul
qilinganlarning **57%** esa
6 oydan ortiq **ishlamagan.**



Ish beruvchilarning subsidiya
va rag'batlantirishdan
foydalanish darajasi **9%** ni
tashkil etgan.



2024-yilda kvota
majburiyatlarini bajarmagan
tashkilotlar ulushi esa
56% ni tashkil etgan.

2-rasm



"KO'P KVARTIRALI UYLARNI BOSHQARISH TO'G'RIDA"GI QONUNNI BAHOLASH NATIJALARIGA KO'RA:

Mulkdorlarning boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan ko'rsatgan xizmatlaridan
qoniqish darajasi **65%**ni tashkil qilmoqda.



3-rasm

SO'ROVNOMA NATIJALARIGA KO'RA:

**40%**

mulkdor boshqaruvchini tanlashda ishtirok etmagan;

**77%**

holatda avariya va nosozliklarni o'z vaqtida bartaraf etilgan

**64%**

holatda majburiy badal hamda to'lovlar miqdori mulkdorlar bilan kelishilmagan;

**64%**

mulkdor uy atrofi (podyezd, hovli va umumiy joylar) tozaligidan qoniqmaydi;

**70% (1 mlndan ortiq)**

mulkdorlar 2024-yilda majburiy badal va to'lovlarni o'z vaqtida to'lamagan yoki qarzdorligi mavjud.

TSTB natijalari bo'yicha **12 ta** qonunchilik hujjatini takomillashtirish yuzasidan **20 dan ortiq** takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, oldingi yillarda ishlab chiqilgan takliflarni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar ham qabul qilindi. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish va tartibga solish yukini kamaytirish to'g'risida" 2025-yil 25-dekabrda PF-231-son qarori qabul qilib, tadbirkorlik sohasidagi **3,2 trln so'm** qiymatdagi **15 dan ortiq** majburiy talablar yengillashtirilishi yoki bekor qilinishi belgilandi (1-infografika).

1-infografika

Amalda yengillashtirilgan yoki bekor qilingan majburiy talablar

**«E-aktiv»da
operatsiyalarni aks
ettirish talabi bekor
qilindi**

Tadbirkorlar uchun moliyaviy operatsiyalarni «E-aktiv» tizimida aks ettirish majburiyati olib tashlandi.

Iqtisodiy samaradorlik:

Agar 54 272 ta korxona atigi 1 tadan xodimni ushbu tizim uchun ishga olganda, yiliga **3,2 trln so'm** ortiqcha xarajat yuzaga kelar edi.

**Nogironligi bo'lgan
shaxslarga qulaylik**

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra davlat ro'yxatidan o'tkazmagan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yengillik berildi.

Ijtimoiy himoya:

Endilikda ular muqobil hujjatlar asosida soliq imtiyozlaridan **to'siqsiz foydalanishlari** mumkin bo'ladi.

**Bojsiz tovar olib kirish
normalari**

Shaxsiy ehtiyoj uchun respublikaga olib kiriladigan tovarlarning bojsiz olib kirish normalari to'liq qayta ko'rib chiqiladi.

Aholiga qulaylik:

Bu aholi uchun qulaylik yaratish va ortiqcha **byurokratik to'siqlarni olib tashlashga** qaratilgan.

**Garovni ro'yxatga
olish arzonlashadi**

Ko'chmas mulkka nisbatan garov huquqini ro'yxatga olishda xizmat narxi 2 baravarga kamaytirildi.

Aholi uchun foyda:

Garovni ro'yxatga olishda aholi xarajatlari yiliga o'rtacha **17,3 mlrd so'mga** kamayishi kutilmoqda.

1.3. Qonunchilik hujjatlari ijrosini monitoring qilish holati

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 53-moddasida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi monitoring qilinishi nazarda tutilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligini ta‘minlash, sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-avgustdagi PF–111-son Farmoni bilan monitoringning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari takomillashtirildi.

Natijada, mazkur tizim normativ-huquqiy hujjatlarning **natijadorligini o‘lchash**, huquqni qo‘llash amaliyotida **yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash** hamda **tahlil jarayonlarini aniq dalillarga asoslangan holda olib borish** imkoni yaratildi.

MONITORING TIZIMIDAN KO‘ZLANGAN MAQSAD

qonunchilik hujjatini qabul qilish maqsadlariga erishilishini o‘rganish, uning ijrosini ta‘minlanganligini baholash uchun statistik ma‘lumotlarni yig‘ish bo‘lib, vakolatli organ tomonidan har yili o‘tkaziladi.

Xususan, Adliya vazirligi tomonidan Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini monitoringdan o‘tkazish uslubiyoti (ro‘yxat raqami 3605, 2024-yil 5-fevral) ishlab chiqilib, **quyidagi shakldagi monitoring rejasi hamda ularni to‘ldirish tartibi** tasdiqlandi.

MONITORING RESURS, AMALIYOT VA NATIJA KO‘RSATKICHLARINI O‘RGANISH ASOSIDA AMALGA OSHIRILADI. BUNDA

- resurs ko‘rsatkichlari – hujjat ijrosini ta‘minlash uchun ajratilgan moddiy va texnik resurslarni;
- amaliyot ko‘rsatkichlari – amalga oshirilgan ishlarning sifatini;
- natijadorlik ko‘rsatkichlari – belgilangan maqsadlarga erishilganligi holatini ko‘rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi PQ-331-son qaroriga 2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2026 — 2030-yillarda kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ijrosini monitoring qilish

REJASI

T/r	Indikator (subindikator) nomi	O'lchov birligi	Joriy holat (yillik)	Maqsadli ko'rsatkichlar					Ijro uchun mas'ul idoralar	Ma'lumot berishga mas'ul idoralar
				2026	2027	2028	2029	2030		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
MAQSAD: BEMOR BOLALARNI DORI VOSITALARI VA MAXSUS OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASH										
I. Resurs ko'rsatkichlari										
1.	Ajratiladigan Davlat budjeti mablag'lari.	mln so'm	0	75 329	78 729	82 848	86 357	88 642	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
2.	Jalb etiladigan grant va xayriya mablag'lari.	mln so'm	0	15 588	17 111	19 239	20 333	21 318	Sog'liqni saqlash vazirligi	Sog'liqni saqlash vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi



Mazkur uslubiyot asosida 2025-yil davomida qonunchilik hujjatlari ijrosini monitoring qilish rejalarini ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Jumladan, maxsus monitoring rejasi ishlab chiqilgan quyidagi hujjatlar bilan tanishib chiqish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Seysmik xavfsizlikni ta'minlash hamda seysmologiya sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 20-oktabrdagi PF-184-son Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2026 — 2030-yillarda kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" 2025-yil 3-noyabrdagi PQ-331-son qarori.

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan uslubiyot asosida **amaldagi qonunchilik hujjatlarini ham baholash** amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2025-yil davomida **Adliya vazirligi huzuridagi Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash instituti** tomonidan bevosita **joylarga chiqqan holda** hamda **maxsus so'rovnomalar tashkil etish orqali** **100 ta** amaldagi qonunchilik, jumladan, **28 ta** qonunning samaradorligi baholandi.

Xususan, **“Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida”**gi qonunning samaradorligi hududlarga, xususan **Toshkent shahri, Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy va Farg'ona** viloyatlariga chiqqan holda o'rganildi. Ushbu tahlil doirasida atmosfera havosini muhofaza qilishga oid jami **9 ta** qonunchilik hujjatining samaradorligi baholandi va quyidagicha natijalar qayd etildi:

**87%****RESURS****65.7%****AMALIYOT****63.8%****NATIJADORLIK**

Baholash natijalariga asosan, mazkur sohadagi qonunchilik hujjatlarini ijroga qaratish uchun resurslar ta'minoti qoniqarli ekanligi, biroq, ijro amaliyotini takomillashtirish zarurati mavjudligi aniqlandi.

Shu bilan birga, **2026-yilda** yana **30 ta** amaldagi qonunchilik hujjatining samaradorligini **monitoring tizimi orqali baholash rejalashtirilgan**.

II. SALOHİYATNI OSHIRISH VA FAOLIYATNI BAHOLASH NATIJALARI

2.1. Vazirlik va idoralar mutaxassislarining malakasini oshirish


Tartibga solish ta'sirini baholash tizimini samarali joriy etish va uni amaliyotda qo'llashda mutaxassislar malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Vazirlik va idoralarning mas'ul xodimlariga qonunchilik hujjatlari va ular loyihalarini TSTBdan o'tkazish bo'yicha 30 dan ortiq onlayn va oflayn shakllarda o'quv va amaliy seminarlar, tushuntirish tadbirlari tashkil etildi.



Bundan tashqari, TSTB sohasida faoliyat olib borayotgan Adliya vazirligi hamda Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash

instituti xodimlarining malakasini oshirish maqsadida Toshkent xalqaro Vestminster universiteti bilan hamkorlikda **tadqiqot metodologiyasi va tadqiqot tahlili bo'yicha maxsus o'quv kursi** tashkil etildi (3-4-rasmlar). O'quv kurslari doirasida tadqiqot metodologiyasi asoslari, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish usullari hamda tadqiqot natijalarini talqin qilish yo'nalishlari bo'yicha ta'lim berildi.



Shu bilan birga, Adliya vazirligi tomonidan vazirlik va idoralarning mas'ul xodimlari ko'nikmalarini oshirish, norma ijodkorligi jarayonida tahlil va baholash madaniyatini shakllantirish hamda TSTB tizimini yana-da takomillashtirish maqsad qilingan.



Ushbu maqsad yo'lida, vazirlik va idoralarning mas'ul xodimlari malakasini oshirish yo'nalishida quyidagi bir qator ishlar amalga oshirildi:

11-fevral kuni Adliya vazirligida qonunchilik hujjatlari loyihalarini elektron tizimda TSTBdan o'tkazish hamda amaldagi qonunchilik hujjatlari ijrosini monitoring qilish tartibiga bag'ishlangan o'quv seminari o'tkazilib, unda 30 dan ortiq

idoraning **80 nafar** mas'ul xodimi ishtirok etdi.

17–25-fevral kunlari davlat organlari va tashkilotlarida norma ijodkorligi hamda strategik rejalashtirish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan **100 dan** ortiq mas'ul xodim uchun TSTB va monitoring tizimi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi.

Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash instituti tomonidan Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bilan hamkorlikda vazirlik va idoralarning strategik rejalashtirish hamda metodologiya yo'nalishidagi tarkibiy bo'linmalari xodimlari uchun normativ-huquqiy hujjatlarni TSTB bo'yicha maxsus o'quv mashg'ulotlari tashkil



etilib, 41 ta tashkilotdan **68 nafar** xodim qamrab olindi.

Bundan tashqari, xalqaro tajribani o'rganish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, xorijiy ekspertlar jalb etildi.

"Twinning" loyihasi doirasida **12–14-mart** kunlari xorijiy ekspertlar ishtirokida tartibga solish siyosati bo'yicha uch kunlik o'quv seminari, **2–5-iyun** kunlari majburiy talablarni qisqartirish bo'yicha Germaniya tajribasiga bag'ishlangan amaliy seminar o'tkazildi;

17–18-sentabr kunlari Finlyandiya Adliya vazirligi hamda Xelsinki universiteti-ning Huquq ustuvorligi markazi bilan hamkorlikda, mazkur markaz direktori Tuya Braks ishtirokida qonunchilik hujjatlarining atrof-muhitga ta'sirini baholash mavzusida o'quv seminari tashkil etildi.



2.2.


Vazirlik va idoralarning faoliyatini baholash natijalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-avgustdagi "Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligini ta'minlash, sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF–111-son Farmoniga muvofiq, davlat organlarining 2025-yil davomida qonunchilik hujjatlari loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholash faoliyati tahlil qilindi.


Baholash O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat organlari va tashkilotlarining qonunchilik hujjatlari loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholash reytingini aniqlash uslubiyoti asosida amalga oshirilib, 5 ta va undan ortiq TSTB hisoboti to'ldirgan 24 ta davlat organi faoliyati tahlil qilindi.

Baholash natijalariga ko'ra, quyidagi davlat organlari **TOP–10 talikka kirgan** (8-diagramma):

8-diagramma




Baholash jarayonida davlat organlari tomonidan to'ldirilgan TSTB hisobotlarining sifati alohida ko'rsatkich sifatida, **8 ta mezon asosida** baholab chiqildi (9-diagramma):



Baholash jarayonida davlat organlari tomonidan to'ldirilgan TSTB hisobotlarining sifati alohida ko'rsatkich sifatida, **8 ta mezon asosida** baholab chiqildi:

Baholash natijasida quyidagi ijobiy holatlar qayd etildi:



Shu bilan birga, ba'zi salbiy tendensiyalar, jumladan, 72 foizida foyda va xarajatlar tahlili to'liq taqdim etilmagani, 52 foizida taklif etilayotgan maqbul usul asoslantirilmagani, 47 foizida muqobil usullar yetarlicha o'rganilmagani aniqlandi.

Baholash natijalari mas'ul xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish zarurligini ko'rsatmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib hamda TSTB sohasidagi faoliyatini takomillashtirish va hisobotlarning sifatini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- ✔ axborot-tahlil sohasidagi mutaxassislarni jalb etish;
- ✔ ilmiy-akademik doiradagi tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- ✔ o'z sohasidagi statistik ma'lumotlar bazasi bilan ishlash;
- ✔ vujudga keladigan foyda va xarajatlarni aniq hisob-kitob qilish.

III. XALQARO HAMKORLIK

Bugungi kunda tartibga solish ta'sirini baholash tizimini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va uni milliy qonunchilik amaliyotiga joriy etish maqsadida Finlyandiyaning Xelsinki universiteti huzuridagi Huquq ustuvorligi markazi, shuningdek, Yevropa Ittifoqining "Twinning" loyihasi doirasida Germaniya va Latviya davlatlarining vakolatli idoralari bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yildi.

XALQARO HAMKORLIK NATIJASIDA YIL DAVOMIDA QUYIDAGI NATIJALARGA ERISHILDI:

- ✓ Finlyandiya tajribasi asosida normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining atrof-muhitga ta'sirini baholash bo'yicha metodik qo'llanma loyihasi ishlab chiqildi;
- ✓ Germaniyaning Baden-Vyurtemberg Oliy ma'muriy sudi raisi Malte Grosshof bilan hamkorlikda huquqiy ta'sir choralarining huquqbuzarlikka mutanosibligini baholash bo'yicha qo'llanma loyihasi tayyorlandi;
- ✓ Germaniya Federal Adliya vazirligi, Tartibga solish bo'yicha nazorat kengashi mutaxassislari bilan majburiy talablarni qisqartirish bo'yicha qo'llanma ishlab chiqildi;
- ✓ "Twinning" loyihasi doirasida Germaniya Federal Adliya vazirligi, Tartibga solish bo'yicha nazorat kengashi va statistika idorasi vakillari bilan hamkorlikda TSTB yo'nalishida 2 ta tajriba-sinov loyihasi o'tkazildi;

Jumladan, Yevropa Ittifoqining **“Twinning”** loyihasi doirasida **Germaniya va Latviya bilan hamkorlik izchil davom ettirildi**. Loyiha doirasida yil davomida turli darajadagi **10 dan ortiq onlayn va oflayn uchrashuvlar** tashkil etilib, xalqaro ekspertlar va mahalliy mutaxassislar ishtirokida seminarlar, davra suhbatlari va o‘quv tadbirlari o‘tkazildi.



29-30 may kunlari bo‘lib o‘tgan **“Tashkent Law Spring”** IV xalqaro yuridik forumi doirasida **“Zamonaviy tartibga solish siyosati: tendensiyalar va istiqbollar”** mavzusiga bag‘ishlangan muhokama sessiyalari o‘tkazilib, unda ilg‘or texnologik yechimlar hamda rivojlanish tendensiyalari muhokama qilindi. Forum doirasida **OECD vakillari bilan** adliya va huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, **“aqlli tartibga solish”** tizimini rivojlantirish va ushbu yo‘nalishda **hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha takliflar muhokama etildi**.

Shuningdek, forum doirasida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziri **Akbar Toshqulov** va BAA Hukumat ishlari vaziri **Mar‘yam bint Ahmad Al-Xammadi** o‘rtasida ikki tomonlama uchrashuv o‘tkazilib, BAA tajribasiga asoslangan **qonunchilik hujjatlari ijrosini ta‘minlashga qaratilgan KPI tizimi** hamda **“Zero Bureaucracy”** loyihasini joriy etish masalalari muhokama qilindi.





Amaliy tajriba almashish maqsadida **23–27-iyun** kunlari **Germaniyaga** xizmat safari tashkil etildi. Tashrif davomida Germaniya Federal Adliya vazirligi, Shimoliy Reyn–Vestfaliya Adliya vazirligi, Federal statistika idorasi hamda Sharqiy Yevropa va xalqaro tadqiqotlar markazida uchrashuvlar o‘tkazildi. Shuningdek, Normativ nazorat bo‘yicha Milliy kengash, Byurokratiya

xarajatlarini qisqartirish milliy markazi va Kichik hamda o‘rta biznes kliring markazi vakillari bilan muzokaralar olib borildi.

Uchrashuvlar jarayonida **qonunchilik hujjatlarining manfaatdor tomonlarga ta’sirini baholash** va **xarajatlarni oldindan hisoblash amaliyoti** o‘rganildi. Natijada TSTB **metodologiyalarini rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish** va **normativ yuklarni kamaytirish bo‘yicha hamkorlik yo‘nalishlari** belgilandi.

Shuningdek, **28-sentabr — 4-oktyabr** kunlari Adliya vazirligi va hamkor tashkilotlar vakillaridan iborat delegatsiya **Latviyaning** Riga shahriga tashrif buyurib, TSTB tizimini joriy etish va qo‘llash amaliyoti bilan yaqindan tanishdi. Tashrif yakunlariga ko‘ra, **norma ijodkorligi jarayonining barcha bosqichlarini, jumladan, qonunchilik hujjatini ishlab chiqishdan ijroga qaratish va e’lon qilishni raqamlashtirish va avtomatlashtirish bo‘yicha takliflar** tayyorlandi.



“Twinning” loyihasi doirasida **29-oktabr** kuni Toshkent shahrida **“O‘zbekistonda izchil va soddalashtirilgan normativ-huquqiy baza sari”** mavzusida **xalqaro simpozium** tashkil etildi.

Unda **Yevropa Ittifoqi** va **Germaniya elchilari, Latviya delegatsiyasi vakillari** hamda **20 dan ortiq vazirlik va idora mutasaddilari** ishtirok etib, **qonunchilikni soddalashtirish, uni zamon talablariga moslashtirish hamda tartibga solish siyosatining aholi va biznesga salbiy ta’sirlarini oldini olish** masalalari atroflicha muhokama qilindi.



Bundan tashqari, **20-avgust** kuni Finlyandiyaning Huquq ustuvorligi markazi bilan onlayn uchrashuv o'tkazilib, **normativ-huquqiy hujjatlarning atrof-muhitga ta'sirini baholash** masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, Finlyandiya Adliya vazirligi va Xelsinki universiteti bilan hamkorlikda Toshkent shahrida **17–18-sentabr** kunlari **“Qonunchilik hujjatlarining atrof-muhitga ta'sirini baholash”** mavzusida **ilmiy-amaliy seminar** tashkil etildi.

IV. ISTIQBOLLI YO'NALISHLAR

Adliya vazirligi TSTB sohasida muvofiqlashtiruvchi organ sifatida mazkur tizimning rivojlanishini doimiy ravishda kuzatib boradi, shuningdek uning amaliyotda qo'llanilishi va samaradorligini tizimli ravishda tahlil qiladi. Ushbu yillik axborotda TSTB tizimini joriy etish va amalga oshirish jarayonida erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, mavjud muammolar hamda yanada takomillashtirishni talab etadigan jihatlar ochiq va xolis tarzda yoritildi.

Umuman olganda, **TSTB tizimining to'liq va samarali ishlashi norma ijodkorligi yondashuvlari va madaniyatini tubdan takomillashtirishni** talab qiladi. Bu jarayon **qisqa muddatli vazifa emas**, balki **uzoq muddatli, izchil va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan strategik maqsad** hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda TSTBga o'xshash tizimlar uzoq yillar davomida shakllangan va takomillashib borgan. Xususan, **AQSHda** tartibga solish ta'sirini baholash tizimi 1970-yillar oxiridan boshlab joriy etilgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan uning metodologik va institutsional mexanizmlari izchil ravishda rivojlantirib borilmoqda. **Buyuk Britaniyada** esa, ushbu tizim 1980–1990-yillardan boshlab amalda bo'lib, bugungi kunda davlat siyosatini shakllantirishning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan.

O'zbekistonda TSTB tizimi joriy etilganiga nisbatan **qisqa — besh yil** bo'lganiga qaramasdan, ushbu yo'nalishda **izchil va tizimli rivojlanish** kuzatilmoqda hamda uning **qo'llanilish doirasi bosqichma-bosqich kengayib bormoqda**. Mazkur jarayon, avvalo, sohada **mustahkam siyosiy irodaning mavjudligi**, shuningdek **zarur institutsional va huquqiy asoslar yaratilgani** bilan izohlanadi.

Adliya vazirligi kelgusida ham **TSTB tizimini yanada rivojlantirish** va uning **amaliy samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirib borishni** rejalashtirmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda bir qator **ustuvor yo'nalishlar** belgilab olindi.

TSTB tizimining samaradorligi, eng avvalo, tahlillarning sifatli va ishonchli bo'lishi bilan o'lchanadi. Shu bois kelgusi bosqichda **analitik**

salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Bu yo'nalish doirasida mutaxassislarning **malaka va ko'nikmalarini mustahkamlash**, dalillarga asoslangan tahlil olib borish va zamonaviy baholash metodologiyalarini qo'llashga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur maqsadlarda doimiy o'quv mashg'ulotlari, qayta tayyorlash dasturlari hamda xalqaro tajriba almashinuvi mexanizmlari kengaytirilishi rejalashtirilmoqda.

Ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishni takomillashtirish TSTB tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jarayonlarda foydalaniladigan ma'lumotlar faqat statistik ko'rsatkichlar bilan cheklanmasdan, ularning ortidagi sabablar, iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlar hamda amaliyotdagi real oqibatlarni ham qamrab olishi lozim. Shu nuqtai nazardan biznes subyektlari, fuqarolik jamiyati institutlari va sohaviy ekspertlarni tahliliy jarayonlarga jalb etish orqali tartibga solish mexanizmlarining amaliy ta'sirini chuqurroq o'rganish, statistik ma'lumotlarda aks etmagan omillarni aniqlash va ishonchli dalillar bazasini shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa qabul qilinayotgan qarorlarning asoslanganligi va amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

TSTB tizimini rivojlantirishda **raqamli texnologiyalar asosida tahliliy vositalarni rivojlantirish** ham ustuvor yo'nalishlardan biridir. Raqamli yechimlar tahlil jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash tezkorligini oshirish, shuningdek natijalarni tushunarli va vizual shaklda taqdim etish imkonini beradi. Shu munosabat bilan raqamli platformalar, tahliliy instrumentlar va axborot tizimlarini ishlab chiqish hamda ularni TSTB jarayonlariga bosqichma-bosqich joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, TSTB tizimining **ilmiy asoslanganligini kuchaytirish va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikni jadallashtirish** muhim ahamiyatga ega. Ilmiy-tadqiqot muassasalarining ishtiroki tahlillarning metodologik puxtaligini ta'minlash, uzoq muddatli ta'sirlarni baholash hamda xalqaro ilmiy yondashuvlarni milliy amaliyotga moslashtirish imkonini beradi. Shu bois qo'shma tadqiqotlar o'tkazish, ekspert xulosalaridan keng foydalanish va ilmiy salohiyatni TSTB jarayonlariga integratsiya qilish kelgusi faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida belgilanadi.